

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA AYOL VA ONA
MAVZUSIDAGI ASARLAR TALQINI

Rahimova X. R.

Nizomiy nomidagi TDPU, Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati
mutahassisligi 2-bosqich magistranti

Annatsiya:

maqolada O‘zbekiston rassomlarining rangtasvir va miniatyurada ayol va ona obrazining tasvirlanishi ma’lumot berilgan. Tasviriy san’atda ayol obrazining o‘rni va ahamiyati haqida bayon qilingan. Shuningdek asarlardagi obrazlarning holati va ularning talqin etilishi, hamda falsafiy g‘oyalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, rangtasvir, miniatyura, rassom, asar, janr, yo‘nalish, portret, obraz, ayol, ona obrazi, talqin, ijod, falsafiy g‘oya, ranglar gammasi, badiiy tahlil, moybo‘yoq, mehr-muhabbat, go‘zallik, nafosat, ramz, madaniyat, ma’naviyat, qadryat.

Аннотация:

в статье описывается изображение образа женщины и матери в картинах и миниатюрах узбекских художников. Описывается роль и значение образа женщины в изобразительном искусстве. Также обсуждались состояние образов в произведениях и их интерпретация, а также их философские идеи

Ключевые слова: изобразительное искусство, живопись, миниатюра, художник, произведение, жанр, направление, портрет, образ, женщина, образ матери, интерпретация, творчество, философская мысль, цветовая палитра, художественный анализ, водяной знак, любовь, красота, утонченность, символ, культура, духовность, ценность.

Abstract:

The article describes the depiction of the image of a woman and a mother in paintings and miniatures by Uzbek artists. The role and significance of the image of a woman in fine art is described. Also, the state of the images in the works and their interpretation, as well as their philosophical ideas, were discussed.

Keywords: fine art, painting, miniature, artist, work, genre, direction, portrait, image, woman, mother image, interpretation, creativity, philosophical idea, color

gamut, artistic analysis, moibo love, love, beauty, sophistication, symbol, culture, spirituality, value.

Insoniyat ma'naviy tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, musiqa - tovushlardan, tasviriy san'at lardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir san'at turi o'z va bo'linadi. San'atni kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun davomida keskin bahs, tortishuvlarga ¹

O'zbekiston tasviriy san'atida qadimgi va o'rta asr ayollar obrazining talqini va o'rganilishi bilan bog'liq turli adabiyotlar, kataloglar, jurnallar, va maqolalar mavjud. Biroq barcha davrlarga xos ma'lumotlarda aynan ayollar obrazi maxsus ilmiy mavzu sifatida chuqur yoritilmagan va o'rganilmagan.

Sharq miniatyurasi san'ati o'z davrining tasavvuri va ma'naviy izlanishlarini namoyon qiladi. Uning ajoyib namunalarida ayollar tasviri ham o'z aksini topadi. Ularni shartli ravishda ikki dunyoqarashli qatlamga ajratish mumkin: muqaddas (an'anaviy) va real. Muqaddas qatlamda shoir va rassomlar aynan go'zal ayollarning obrazi orqali butun koinotning uyg'unligi va chiroyini ko'rsatishga harakat qilishgan.

Masalan, Kamoliddin Behzodning "Malika portreti" kamyob asarlar sirasiga kiradi. Bu portret naturaga yaqinmi degan savol tug'iladi. Aytish mumkinki, bu oy chexra go'zalning qayrilma qoshlari ostidagi maftunkor ko'zlari yonib turadi. Uning og'zi bejirimgina ishlangan. Liboslari guldor, naqshli va bayramona. Boshida toj singari xoshiyalangan ko'rkam qalpoq. Qo'llarida nafis gullar tutgan. Umuman, malika shoirona qiyofada gavdalantirilgan. U sharq she'riyatida minglab marotaba tarannum etilgan go'zalga o'xshaydi. Behzodning yana bir "Gullayotgan novdalar orasida qiz" asari figurali va bezakli ibtido uyg'unligiga misol bo'la oladi. Tillarang sariq fonda qora ko'ylakli oy yuzli qizning tanasi uchib yurgandek. Uning ko'ylagida keng yaproqli novda tasviridagi bezaklar ma'noli ko'rinib turibdi. Tana bezak bilan uyg'unlashib, mangu go'zallikni kuylayotgandek tasavvur uyg'otadi.²

Rassomlarning barchasini ijodida ayol yoki ona obrozini ko'rishimiz mumkin. Rassom yo'qki ijodi davomida bir marta bo'lsada ayol, ona obroziga murojaat qilmagan bo'lsa.

O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi, professor Qutlug' Basharov tasviriy san'atning portret, tarixiy janrlaridan ham

¹ Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya. -2012 y, 9-b. 232

² Xakimov A. "Behzod– G'arb va Sharq muloqoti", // «SAN'AT», 2000. – №4.

ijod qilgan. Uning mashhur asarlari “Nodirabegim” “Kashmir qo‘shig‘i”, “Hosil bayrami”, “Anor”, “Yoshlik”, “Pillakor”, “Anor”, “Onalik” asarlarida o‘sha davrning qiyin, og‘ir kunlarida ayollarning ro‘li tasvirlangan. Qutlug‘ Basharovning “Nodirabegim bog‘da”, “Nodirabegim”, “Nodirabegim shoirlar davrasida” asari shoira Nodirabegim siymosi o‘sha davrga xos tasvirlangan.



Q.Basharov “Nodirabegim”


Q.Basharov “Nodirabegim bog‘da”

Shamsro‘y Hasanova O‘zbek xotin-qizlaridan etishib chiqqan birinchi musavvira. Rassomning o‘z polotnolaridagi qahramonlari bilan ruhiy aloqasi uning dastlabki asari – Zebunniso portreti bilanoq o‘rnatildi. Bir paytlar Zebunniso nomidagi maktabda o‘qigan musavvira uning obrazida o‘z qiyofasini ko‘rdi, uni yurakdan his qildi. Shundan so‘ng, Zebunnisoning beldan yuqorisi va to‘la gavdasi tasvirlangan ikki portretini va etyudini ishladi. Ularda impressionizmga moyillik seziladi. Musavvira engil va shaffof tarzda yorqin, ammo qarama-qarshi bo‘yoqlarni qo‘llaydi. Shu tariqa portretda ichki ruhiyat va kayfiyat to‘g‘ri ilg‘ab olingan, ranglarda lahzalik va o‘zgaruvchanlik jarayoni ro‘y bergan. Belgacha ishlangan portretda rassomning o‘z qiyofasi tasviri aniq seziladi. Unda Zebunnisoning qalb tug‘yonlari va hayajoni ifodalangan, bu esa bo‘rttirilgan yuz ifodasi va ko‘z va qo‘l imo-ishorasi tasvirlari orqali hosil qilingan. Unda rang etyuddagiga nisbatan quyuqroq, tuslar esa etyuddagidek. Etyud va portret rangtusli hajm ko‘lami rangtasvir usulida olingan. Zebunniso portreti Shamsro‘y Hasanova ijodida dastlabki qadam edi.



Sh.Xasanova “Uvaysiy” portreti

O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov ham ijodi davomida ayol obraziga ko‘p bora murojaat qilgan rassomlardan biridir. Chingiz Axmarov Nodirabegim portretida obraz to‘laqonli aks ettirilgan. Rassom 100x100 xajmdagi portretni ishlov berilgan chipta mato ustiga tempera bo‘yoqlari bilan 1976 yili ishlagan. Portret muallifning mulki hisoblanadi. Nodirabegimning kiyimidagi va portret fonida yulduz shaklidagi devoriy mayolikadagi purkalgan och zumrad va och sariq, nozik umumiy, to‘q safsar ranglar bu buyuk shoiraning fojiaiy taqdiridan darak berayotgandek. Bu portretga rassom qanchalik qayg‘uli o‘ylarni yuklatganligi sezilib turibdi. Portret ushbu rassomga xos bo‘lgan bezakdor yuza tarzida chizilgan.



Ch.Axmarov. “Nodirabegim” portreti.

Boshidagi tilla qosh va quloqlaridagi uygʻur baldoq, egnidagi beqasam chopon faqat Fargʻona vodiysigagina xos boʻlgan xalq ustalari qoʻli bilan yaratilgan sanʼat asarlarini va mahalliy amaliy sanʼat kasbiy maktablari qadimiy anʼanalari ifodasini koʻrsatib turadi. Portretida shoira qoʻl harakatlari ifodali, chap qoʻl kafti oʻng qoʻl kaftini ushlab turibdi, bu uning fikrlarini jamlanganligi, ayni paytda bu goʻzal ayol qalbida kechayotgan xayajonni ifodalaydi. Tasviriy sanʼat ustasi Chingiz Axmarov Nodirabegim obrazi ustida uzoq (1970 yildan 1976 yilgacha) izlandi. 1976 yili yaratilgan portretga oʻtkazilgan shoira xarakterining asosiy jihatlari tasvirlangan edi. Shu asnodda katta sanʼatkor Chingiz Axmarov Moxlaroyim Nodirabegimga oʻz ehtiromini bildirdi.³

Rassom A.Mamatovning ijodini kuzatar ekanmiz, ayollar, qizlar obrazining yorqin ifodasini koʻrishimiz mumkin. Masalan uning “Nodirabegim” portreti, “Mexanizator qizlar”, “Saxovat”, “Choʻpon Rahimaxon” portreti, “Bernara Qoraboyeva Anna Karinina obrazida” asarlari shular jumlasidandir.



A.Mamatova “Saxovat “ 1986-yil

Rassom 1986-yilda hozir Davlat sanʼat muzeyida saqlanayotkan “saxovat” asarini yaratdi. Rassom qahramonlari portretlari Qoʻqon shahri yaqinidagi Yov qishlogʻi qizlaridan olingan. Ularning obrazlari oʻzlarining mehnatsevarligi bilan

³ Mamatov U.Oʻzbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy sanʼat asarlari.-T.:Fan va texnologiyalari nashryot-matbaa uyi.-2021 y, 55-56 b.


yaratilgan ona yer tuhfasini, to'kin hosilni o'z elklarida ko'tarib olgan qishloq ayollarining ichki ruhini namoyon qiladi. Qizil anor daraxti fonida markazda bola ko'tarib olgan ona tasvirlangan. Bu asarda, bu olamdagi mehnat va onalik hayotning boshi va davomi kuylanadi.⁴

O'zbekiston erishgan mustaqillik o'zbek xalqi milliy o'zligini anglashga, uning ma'naviy dunyosiga, demakki, san'atiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ma'naviy tazyiqlardan holi bo'lish va ijod erkinligiga erishish badiiy jarayonning muhim omillaridan sanalib, u ijodkorlarga yangi plastik shakllarni yaratish va turli uslubiy yo'nalishlarda ijod qilishdek qulay sharoit tug'dirdi.

XX asr oxiri XIX asr boshlaridan tasviriy san'atning tarixiy janrida ijod qilgan eng ist'edodli rassomlardan biri Orif Muinovdir. O.Muinov portretlari o'zining plastik tugalligi bilan ko'zni qamashtiradi. Chiziqlar ohangdor va juda go'zal. Lekin eng asosiysi ular o'ziga xos va ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa rassomning tarixiy ayollar portretlari jozibador ushbu suratlarda butun qalb ko'rini va mehrini singdira olgan. Bular Malika To'maris, Bibixonim, Nodirabegimdir.

Rassom 1996 yili malika Bibixonim obrazini yaratdi. Sharafiddin Ali Yazdiy va Arabshoxning yilnomalaridan ma'lumki, u hukmdor Amir Temurning suyukli zavjasi, uning o'g'illari va nevaralarining tarbiyachisi bo'lgan. Portretda yuz ifodasi, qo'llar harakati barchasi uyg'un. Ayniqsa malika Bibixonimning baland, nozik egilgan, tovus patlari taqilgan, qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan, yosh ayolning boshiga chiroyli qo'ndirilgan bosh kiyimi ko'rkam. Malikaning obrazi va libosini yaratish uchun rassom boy tafakkurga ega bo'lishi zarur edi. Shu ma'noda sirli va mo'tadil yuz ifodasi eng e'tiborli joy bo'lib qoldi. Uning ko'z qarashlari katta ma'noga ega. Nozik tashqi ko'rinishi ortida Bibixonimning engib bo'lmas qudrati yashiringan edi, negaki xukmdor Amir Temur uzoq harbiy safarlarga ketganda Movaraunaxrni u boshqargan edi.

⁴ Mamatov U.O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari.-T.:Fan va texnologiyalari nashryot-matbaa uyi.-2021 y, 25-b.



O. Muinov. “Bibixonim” portreti.

Tasviriy san’atda ayol obrazi bu-rassomlarning ilhom parisi, o’lmas zamon va makon tanlamaydigan mavzudur. Ayol obrazi tiriklikning, hayotning ramziy ifodasidir. Ayol obrazi har qanday davrda o’zining ahamyati va o’rnini yo’qotmagan. Har qanday davr uchun mos mavzudur. Zero ayol bor ekan hayot ham davom etadi. Ayol ne-ne rassomlarni va san’at ahlini ilhomlantiradigan beqiyos kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya. -2012 y, 232-b.
2. Ahmedov M.B., Xasanova M.Z. Qalamtasvir. –T.: IJOD–PRINT, 2021, 176 b.
3. Mamatov U. O‘zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari.-T.:Fan va texnologiyalari nashryot-matbaa uyi.-2021 y, 183 b.
4. Xakimov A. “Behzod– G‘arb va Sharq muloqoti”, // «SAN’AT», 2000. – №4.
5. Akhmedov , M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
6. Ahmedov , M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING

CIRCLES. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>

7. Bakhridinovich, A. M. U. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142-156.

8. Mukhammadjonovich, Kodirov Mahmudjon. "FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 3.10 (2022): 34-41.
<https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1052>

9. Development of Students' creative abilities through teaching landscape painting Talipov, N.K, Talipov, N.N, Yuldasheva, N.I, Jabbarov, R.R, Muratov, K.K Journal of Critical Reviews, 2020, 7(6), pp. 227–230

10. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288.
doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>

11. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL:<https://moluch.ru/archive/192/48066/>

12. Маъруф Эшпулатов. (2023). ЎҚУВЧИ ЁШЛАРДА МАЪНАВИЙ-ТАРБИЯВИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АДАБИЁТ ОМИЛИ. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2(1), 186–195. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/929>

13. Maruf Eshpulatov. (2023). THE USE OF INTERACTIVE TECHNIQUES IN THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2(1), 325–333. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/1019>

14. Nazirbekova, S. (2021). THE IMPORTANCE OF FIELD PRACTICE IN FINE ARTS. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v4.35>

15. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, & Назирбекова Шахноза Ботировна (2017). Компьютеризация и информатизация художественно-

практические занятия в обучении студентов. Инновации в науке, (12 (73)), 21-23.

16. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, Назирбекова Шахноза Ботировна, & Махкамова Саодат Бахтияровна (2016). Художественно-культурные традиции узбекского народного искусства на уроках изобразительного искусства. Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии, (11 (68)), 32-42.

17. Nazirbekova, S. B. (2021). In the practice of plain air, the fine arts occupies an important place and priority. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 250-255.

18. U. Nurtaev, & L. Jumatova. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE FINE ART TEACHERS BASED ON ART STUDIES. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 28–32. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/808>

19. Уринбай Нишанбекович Нуртаев. (2022). ОСНОВЫ ИСКУССТВОВЕДЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ НАЦИОНАЛЬНОГО ИСКУССТВА. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 8, 46–50. Retrieved from <http://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/132>

20. Нуртаев, У. Н., & Махкамова, С. Б. (2016). Вопросы подготовки студентов к художественно-творческой деятельности. *Молодой ученый*, (7), 687-691.

21. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>

22. Нозим Талипов, & Нигматжон Талипов (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. *Общество и инновации*, 2 (4/S), 607-613. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613

23. Абдирасилов, С. Ф., Толипов, Н. Х., & Толипов, Н. Н. (2017). Эффективность исторического подхода в художественном обучении. *Молодой ученый*, (20), 417-421.

24. Saodat Makhkamova Bakhtiyarovna. (2021). QUESTIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC GAFUR ABDURAKHMANOV ANALYSIS OF WORKS OF FINE ART IN SCHOOL. *Euro-Asia*

Conferences, 5(1), 13–18. Retrieved from
<http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/437>

25. Махкамова, С., & Жаббаров, Р. (2022). Axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasviriy san‘at ta‘limi samaradorligini oshirish metodikasi. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 27–29. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5097>

26. Tulanova, D. (2021). Imaginary line in landscape painting of Uzbekistan. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 773-778.

27. Туланова Дилноза Журахановна (2022). ФОРМИРОВАНИЕ И СПЕЦИФИКА РАЗВИТИЯ ПЕЙЗАЖНОЙ ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА. *European Journal of Arts*, (1), 8-15.

28. Jabbarov Rustam Ravshanovich PATTERNS IN APPLIED ART OF THE UZBEK FOLK // *European Journal of Arts*. 2023. №1. С. 11 - 14. URL: <https://ppublishing.org/archive/publication/538-patterns-in-applied-art-of-the-uzbek-folk>